O‘SMIRLAR NUTQIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI

Qodirova Gulnoza Shuhrat qizi,
Urganch innovatsion universiteti magistranti
E-mail: kadirovagul@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19724956

Annotatsiya. *Ushbu tezis o‘zbek va ingliz o‘smirlari nutqidagi frazeologik birliklarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda o‘smirlik davri nutqiy manzarasining o‘ziga xos jihatlari psixolingvistik nuqtayi nazardan yoritilgan. O‘zbek tilidagi somatik komponentli frazeologizmlar va ingliz tilidagi ekzistensial frazalar qiyosiy-tavsifiy hamda psixolingvistik metodlar asosida tahlil qilingan. Badiiy adabiyot namunalari va frazeologik lug‘atlar material sifatida tanlangan.*

Kalit so‘zlar*: o‘smirlar nutqi, frazeologizmlar, emotsional-ekspressivlik, somatik obrazlar, psixolingvistika, qiyosiy tahlil.*

Аннотация. *Данная диссертация посвящена сравнительному анализу эмоционально-экспрессивных особенностей фразеологических единиц в речи узбекских и английских подростков. В исследовании освещаются специфические аспекты речевой картины подросткового возраста с психолингвистической точки зрения. Фразеологизмы с соматическим компонентом ("лицо", "глаз", "сердце", "нос", "руки-ноги") в узбекском языке и экзистенциальные фразы в английском языке анализируются с использованием сравнительно-описательных и психолингвистических методов. В качестве материала выбраны образцы художественной литературы и фразеологические словари.*

Ключевые слова: *речь подростков, фразеологизмы, эмоционально-экспрессивность, соматические образы, психолингвистика, сравнительный анализ.*

Abstract. *This thesis is devoted to a comparative analysis of the emotional-expressive features of phraseological units in the speech of Uzbek and English adolescents. The study highlights the specific aspects of the speech landscape of adolescence from a psycholinguistic perspective. Somatic component phraseological units in Uzbek and existential phrases in English are analyzed using comparative-descriptive and psycholinguistic methods. Works of fiction and phraseological dictionaries were selected as material.*

Keywords: *adolescent speech, phraseological units, emotional-expressiveness, somatic images, psycholinguistics, comparative analysis.*

Kirish. O‘smirlik davri inson ontogenezidagi eng murakkab bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davr nafaqat fiziologik va psixologik o‘zgarishlar, balki nutqiy manzaraning tubdan yangilanishi bilan ham tavsiflanadi. Psixolingvistik nuqtayi nazardan, o‘smirning til tizimi shunchaki axborot almashish kodi emas, balki shaxsiyatni namoyon qilish, o‘z "men"ligini himoya qilish va tashqi muhitning salbiy ta’sirlaridan saqlanish uchun xizmat qiluvchi "psixologik qalqon" vazifasini o‘taydi.

Frazeologizmlar tilning eng obrazli va ta’sirchan birliklari sifatida o‘smirlar nutqida alohida o‘rin tutadi. Ular o‘smirning subyektiv olamini tashqi dunyo bilan

bog‘lovchi kognitiv ko‘prik vazifasini bajaradi. Emotsional beqarorlik, maksimalizm va identifikatsiya inqirozi bilan kechadigan bu davrda frazeologik birliklar o‘smirga o‘z his-tuyg‘ularini aniq, obrazli va ta’sirchan ifodalash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘zbek va ingliz o‘smirlari nutqidagi frazeologik birliklarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish va ularning psixolingvistik asoslarini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- O‘smirlik davri nutqiy manzarasining psixolingvistik xususiyatlarini tavsiflash;
- O‘zbek o‘smirlari nutqidagi somatik komponentli frazeologizmlarni tahlil qilish;
- Ingliz o‘smirlari nutqidagi ekzistensial frazeologizmlarni o‘rganish;
- Ikki tildagi frazeologik birliklarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish;
- Frazeologizmlarning o‘smirlar nutqidagi psixolingvistik funksiyalarini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili. L.S.Vygotskiy ta’kidlaganidek, o‘smirlik davri – bu "yangi oliy psixik funksiyalarning shakllanish davri"dir. Bu davrda o‘smirning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, o‘z-o‘zini anglash darajasi tubdan o‘zgaradi. E. Erikson esa o‘smirlik davrini "identifikatsiya – rolning aralashuvi" krizisi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, bu davrda o‘smir "Men kimman?" degan savolga javob izlaydi.

A.A.Zalevskaya, o‘smir miyasida til birliklarini qayta ishlash jarayoni kattalarnikidan farq qiladi. Uning "dual-coding" (qo‘shaloq kodlash) nazariyasiga ko‘ra, so‘z yoki ibora bir vaqtning o‘zida ham semantik birlik, ham vizual tasvir sifatida idrok etiladi. Bu, ayniqsa, frazeologizmlarni tushunish va qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tavsifiy, komponentli tahlil va psixolingvistik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Turli tillardagi o‘smirlar frazeologiyasining qiyosiy tahlili esa nafaqat lisoniy, balki madaniy va psixologik farqlarni aniqlash imkonini beradi. O‘zbek va ingliz tillari turli tipdagi tillarga mansub bo‘lib, ularning frazeologik tizimidagi o‘xshash va farqli jihatlarni o‘rganish tilshunoslik, psixolingvistika va sotsiolingvistika uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar va natijalar. O‘smirlik davrining eng muhim psixologik xususiyatlaridan biri – emotsional beqarorlikdir. O‘smirning kayfiyati tez-tez o‘zgarib turadi, uning hissiyotlari keskin va ziddiyatli xarakter kasb etadi. Bu holat uning nutqiy faoliyatida ham o‘z ifodasini topadi. Psixolingvistik nuqtayi nazardan, o‘smirlar nutqi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Emotsional ekspressivlikning

yuqori darajasi. O‘smir o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashda tilning barcha ekspressiv vositalaridan faol foydalanadi. Bu, ayniqsa, frazeologik birliklarning qo‘llanilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘smirlik davrida abstrakt va metaforik fikrlash qobiliyati jadal rivojlanadi. Bu frazeologik birliklarni tushunish va ulardan faol foydalanish imkonini beradi. O‘smirlar til birliklarini o‘zgartirish, yangi so‘z va iboralar yaratishga moyil bo‘ladilar. Bu frazeologizmlarning transformatsiyasida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birgalikda o‘smirlar o‘zlarining "yashirin tili"ni yaratishga intiladilar, bu jarayonda frazeologizmlar ham o‘ziga xos tarzda qo‘llaniladi.

Frazeologizmlar – bu turg‘un so‘z birikmalari bo‘lib, ular ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi va nutqqa obrazlilik, ta’sirchanlik baxsh etadi. O‘smirlar nutqida frazeologizmlar quyidagi funksiyalarni bajaradi. Frazeologizmlar o‘smirning his-tuyg‘ularini, emotsional holatini ifodalashga xizmat qiladi va ular o‘smirga o‘z fikrini aniq va ta’sirchan yetkazish imkonini beradi. Ular orqali o‘smir o‘zining ma’lum bir guruhga mansubligini, dunyoqarashini namoyon qiladi. A. Wray ta’kidlaganidek, formulalangan nutq va tayyor til birliklari o‘smir miyasining ishlov berish yukini (processing load) kamaytiradi. Natijada o‘smir o‘zining kuchli emotsiyalarini tayyor va pishiq qoliplarda silliq yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbek tili frazeologik tizimida somatik komponentli iboralar alohida o‘rin tutadi. "O‘zbek tili frazeologik lug‘ati" (2022) tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar nutqida "yuz", "ko‘z", "yurak", "til", "burun", "qo‘l-oyoq" kabi somatik birliklar dominantlik qiladi. Bu holat o‘zbek milliy mentalitetining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, unda tana a’zolari nomlari orqali insonning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari va ijtimoiy munosabatlari ifodalanadi.

O‘smirlik davrining eng muhim xususiyatlaridan biri – o‘z "men"ligini namoyon qilish, mustaqillikka intilishdir. Bu jarayonda o‘smirlar ko‘pincha agressiv norozilik, isyon ko‘rinishidagi xatti-harakatlarga moyil bo‘ladilar. Ushbu holat frazeologizmlarda ham o‘z ifodasini topadi. "*Betiga oyoq qo‘ymoq”* iborasi lug‘atda "o‘ta ketgan hurmatsizlik qilmoq" ma’nosini bildiradi (71-bet). Bu ibora o‘smirlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarda, ayniqsa, nizo vaziyatlarida faol qo‘llaniladi. O‘smir bu ibora orqali o‘ziga nisbatan hurmatsizlik qilgan tengdoshiga nisbatan munosabatini ifodalaydi. "*Burnini ko‘tarmoq*", "*dimog‘i ko‘tarilmoq*" kabi iboralar kibr, gerdayish, mensimaslik ma’nolarini ifodalaydi. O‘smirlar o‘rtasida bu iboralar, ayniqsa, guruh ichidagi status uchun kurashda faol qo‘llaniladi. Kimdir o‘zini boshqalardan yuqori qo‘yganida, tengdoshlari unga nisbatan bu iboralarni ishlatadilar. S. Anorboyevning "Oqsoy" asarida o‘smir yoshidagi qahramonlarning o‘ziga bino qo‘yishi quyidagicha tasvirlanadi: "«Mensiz eplab bo‘psanlar!» – deb,

dimog‘lari ko‘tarilib ketadi". Bu yerda "dimog‘i ko‘tarilmoq" iborasi orqali o‘smirning o‘zini boshqalardan ustun qo‘yishi, kibrlanishi ifodalangan.

Ruhiy iztirob va psixosomatik holatlar ifodasi. O‘smirlik "maksimalizmi" hissiyotlarni giperbolizatsiya qilishga moyil. O‘smirlar o‘z his-tuyg‘ularini, kechinmalarini juda kuchli, haddan tashqari darajada ifodalashga intiladilar. Bu holat psixosomatik frazeologizmlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. "*Dami ichiga tushib ketmoq*" iborasi "qattiq qo‘rqmoq" ma’nosini ifodalaydi. O‘smirlar qo‘rquv, dahshat holatlarida bu iborani faol qo‘llaydilar. "*Ich-etini yemoq*" iborasi "o‘ta tashvishlanmoq", "qayg‘urmoq" ma’nolarini ifodalaydi. Bu ibora orqali o‘smirning ichki kechinmalari, ruhiy azoblari ifodalanadi. Tog‘ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida: "Dadamning qahri qattiq, bir qarasa *yuragim qinidan chiqib ketay deydi*" deb tasvirlanadi. Bu yerda qo‘rquvning jismoniy his darajasiga ko‘tarilishi psixolingvistik intensifikatsiya hodisasidir. "*Yuragi qinidan chiqmoq*" iborasi orqali o‘smirning otasidan qo‘rqish holati juda kuchli darajada ifodalangan.

Ingliz tilida o‘smirlar nutqi ko‘proq "self-expression" (o‘zini namoyon qilish) va kattalar dunyosiga nisbatan "alienation" (begonalashish) motivlariga quriladi. G‘arb madaniyatida individuallik, shaxsiy erkinlik, o‘zligini namoyon qilish kabi qadriyatlar ustuvor bo‘lganligi sababli, ingliz o‘smirlari nutqida ham bu jihatlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Ingliz o‘smirlari frazeologiyasida ko‘proq psixologik holatlar, ichki kechinmalar, jamiyatdan begonalashish, o‘zlikni izlash kabi mavzular aks etadi. Bu frazeologizmlar ko‘pincha metaforik xarakterga ega bo‘lib, ular orqali o‘smirning murakkab ruhiy kechinmalari ifodalanadi.

Sarkazm va soxtalik (Phoniness) ifodasi. J.D. Salingerning "The Catcher in the Rye" ("Javdarni ushlagan") asarida bosh qahramon Holden Caulfield nutqi jamiyatdagi soxtalikka qarshi qaratilgan sarkazm bilan to‘la. Holden o‘zini o‘rab turgan kattalar dunyosini, ularning ikkiyuzlamachiligini, soxtaligini keskin tanqid qiladi. "*Shooting the crap*" iborasi "bekorchi gap bilan vaqt o‘tkazmoq", "befoyda suhbatlashmoq" ma’nosida qo‘llaniladi. Holden bu ibora orqali atrofidagi odamlarning ma’nosiz, yuzaki suhbatlariga munosabat bildiradi. Holdenning nutqidagi bu kabi iboralar jamiyatga nisbatan emotsional charchoq, norozilik va begonalashishni ifodalaydi. U o‘zini atrofdagi soxta dunyodan ajratib qo‘yishga intiladi. Ekzistensial quvonch va izolatsiya ifodasi. Stephen Chboskyning "The Perks of Being a Wallflower" ("Devorda qolgan gulning imtiyozlari") asarida o‘smirning ijtimoiy izolatsiyasi, chetda qolganligi ifodalanadi. "*To be a wallflower*" iborasi "chetda qolib ketgan odam", "ijtimoiy hayotda faol qatnashmaydigan kishi" ma’nosida qo‘llaniladi. Bu ibora asardagi bosh qahramonning ijtimoiy izolatsiyasini ifodalovchi asosiy metaforadir. U ziyofatlarda, yig‘ilishlarda devorga suyanib, chetda

turib, boshqalarni kuzatadi. Bu ibora o‘zbek tilidagi "chetga chiqib qolmoq" iborasiga yaqin bo‘lsa-da, ingliz tilida bu qahramonning o‘ziga xos "kuzatuvchi" maqomini ulug‘lashga xizmat qiladi. Ya’ni, bu yerda chetda qolish salbiy holat emas, balki o‘ziga xos imtiyoz, kuzatish imkoniyati sifatida talqin qilinadi.

"Mental Model" va "Dual-Coding" nazariyasi. O‘smirlar nutqida frazeologizmlarning faollashuvi A.A. Zalevskaya va E. Sapir nazariyalari asosida tushuntiriladi. Zalevskayaning "dual-coding" (qo‘shaloq kodlash) nazariyasiga ko‘ra, o‘smir miyasida frazeologik birlikni qabul qilish jarayonida ikki xil kodlash amalga oshadi: ibora ham semantik birlik, ham vizual tasvir sifatida idrok etiladi. Bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

Emotsional impuls. O‘smirda qandaydir hissiy holat (masalan, kamsitish, g‘azab, quvonch) yuzaga kelganda, miyada darhol tegishli kontsept faollashadi.

Obrazli tanlov. O‘smir miyasida ushbu kontseptni ifodalash uchun eng mos frazeologik birlik tanlanadi. Masalan, o‘zbek o‘smiri miyasida baliq obrazi bilan bog‘liq "laqqa tushirmoq" varianti, ingliz o‘smirida "*to pull someone's leg*" varianti paydo bo‘ladi.

Ekspressiv chiqish. Tanlangan frazeologik birlik nutqda ifodalanadi. Turg‘un iboralar o‘smirga nutqiy "tayyor qurol" bo‘ladi, bu stressli vaziyatda fikrni tez va ta’sirchan yetkazishni ta’minlaydi. Ijtimoiy andisha yoki individual isyon. O‘zbek o‘smirlari nutqida "*yuzini yerga qaratmoq*", "*yuzi shuvut bo‘lmoq*" kabi jamoatchilik fikri, ijtimoiy obro‘ bilan bog‘liq iboralar ko‘p uchraydi. Bu o‘zbek madaniyatida jamoaviylik, ijtimoiy normalarga rioya qilish muhimligini ko‘rsatadi. Ingliz o‘smirlarida "*burning bridges*" (aloqalarni uzish), "*breaking free*" (ozodlikka chiqish), individuallikka yo‘naltirilgan iboralar ustuvorlik qiladi.

O‘smir o‘zining kuchli emotsiyalarini ifodalash uchun har safar yangi so‘z birikmalari yaratishga majbur emas. U tayyor va pishiq qoliplardan foydalanadi. Bu unga quyidagi imkoniyatlarni beradi: tezlik, ta’sirchanlik, ishonchlilik, himoya. O‘zbek tilidagi somatik iboralar ijtimoiy munosabatlarni tartibga solsa, ingliz tilidagi ekzistensial frazalar shaxsiy kechinmalarni tashqi dunyoga "vocalizing" (baqirish, ovozli ifodalash) usulidir.

Xulosa. O‘smirlar nutqidagi frazeologizmlar ularning murakkab psixologik holati, identitet krizisi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim lisoniy vositalardir. O‘smirlik davri nutqiy manzarasi emotsional beqarorlik va yuqori ekspressivlik bilan tavsiflanadi. Frazeologizmlar o‘smirning subyektiv olamini tashqi dunyo bilan bog‘lovchi kognitiv ko‘prik vazifasini bajaradi. O‘zbek o‘smirlari nutqida somatik komponentli frazeologizmlar ustuvorlik qiladi. Ular agressiv norozilik, “men”lik isyoni, ijtimoiy ustunlik va ruhiy iztirobni ifodalaydi. Ingliz

o‘smirlari nutqida ekzistensial frazalar, sarkazm va begonalashish yetakchi bo‘lib, jamiyatdagi soxtalikka qarshi norozilik va o‘zlikni izlashni ifodalaydi. Psixolingvistik jihatdan frazeologizmlar “dual-coding” (qo‘shaloq kodlash) asosida qabul qilinadi va emotsional impuls, obrazli tanlov hamda ekspressiv chiqish bosqichlarida namoyon bo‘ladi. Qiyosiy tahlil o‘zbek o‘smirlari frazeologiyasida jamoaviylik va ijtimoiy andisha, ingliz o‘smirlari frazeologiyasida esa individuallik va shaxsiy erkinlik ustuvorligini ko‘rsatdi. Frazeologizmlar o‘smirlar nutqida psixologik himoya vositasi bo‘lib, miyaning ishlov berish yukini kamaytiradi va stressli vaziyatlarda fikrni tez yetkazishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 480 b.
2. Анорбоев С. Оқсой. – Тошкент: Ёш гвардия, 2018. – 256 б.
3. Норматов Н. Бўрилар. – Тошкент: Шарқ, 2015. – 320 б.
4. Холмирзаев Х. Учқун. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 284 б.
5. Тўғай Мурод. Отамдан қолган далалар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – 352 б.
6. Salinger J.D. The Catcher in the Rye. – New York: Little, Brown and Company, 1951. – 277 p.
7. Chbosky S. The Perks of Being a Wallflower. – New York: Pocket Books, 1999. – 213 p.
8. Green J. Looking for Alaska. – New York: Dutton Books, 2005. – 221 p.
9. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.
10. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – Москва: Прогресс, 1996. – 344 с.
11. Залевская А.А. Психолингвистические исследования. – Москва: Гнозис, 2005. – 416 с.
12. Wray A. Formulaic Language and the Lexicon. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 332 p.
13. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: Harcourt, Brace, 1921. – 258 p.